

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7878895>

**Tojiboyeva Muqaddaxon**

*FarDU talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada fan va uning xususiyatlari batafsil yoritib o'tilgan. Shuningdek, O'zbekistonda ilm-fanni rivojlantirish yo'lidagi qator islohotlar va ularning natijalari haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ilm, fan, Fanlar Akademiyasi, YuNESKO, texnika, akademik, obyektiv, empirik.*

Fan bizni qurshab turgan dunyo to'g'risidagi obyektiv aniq bilimlarni ishlab chiqish bo'yicha samarali inson faoliyatining alohida sohasi hisoblanadi. Bu soha mazkur ijodni ta'minlovchi, muntazam rivojlanib boruvchi bilimlar tizimini, insonlar va muassasalarning ilmiy ijodlarini o'z ichiga oladi. Inson kamolotga ta'sir etadigan omillardan biri tashqi muhitdir. Muhit deganda, kishiga tabiiy ta'sir etadigan tashqi voqealar majmuyi tushuniladi. Bunga tabiiy muhit, ijtimoiy muhit va oila muhiti kabilar kiradi. Fan va texnikaning bir-biri bilan bog'liq rivojlanish jarayoni insonga moddiy va manaviy boyliklarni olish uchun atrof-muhitga ta'sir etishga imkon beradi. Zero, bu ta'sir hozirgi vaqtda ham, istiqbolda ham atrof-muhitga zarar keltimasligi lozim.

Fanning rivojlanishi ma'lumotlar to'plashdan boshlanadi. Ma'lumotlar o'rganiladi, tizimlashtiriladi va umumiyashtiriladi. Fan sohasi quyidagi sohalarni o'z ichiga qamrab oladi:

☒ Ilmiy tushunchalar, tamoyillar va aksiomalar, ilmiy qonunlar, nazariyalar va farazlar, empirik ilmiy faktlar, uslublar, usullar va tadqiqot yo'llari tarzidagi uzluksiz rivojlanib boruvchi bilimlar tizimini;

☒ Bilimlarning mazkur tizimlarini yaratish va rivojlantirishga yo'naltirilgan insonlarning ijodiy merosini;

☒ Insonlar ijodini ilmiy mehnat obyektlari, vositalari va ilmiy faoliyat sharoitlari bilan ta'minlovchi muassasani.

O'zbekistonda ilm-fan sohasiga alohida e'tibor qaratiladi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1992-yil iyuldagi "Ilm-fanni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan. Bu farmon ilm-fanni rivojlantirish yo'lidagi dastlabki qadam bo'lgan. Bu farmonga muvofiq, Respublika olimlarini xorijiy mamlakatlarga tajriba orttirishga yuborilishi yo'lga qo'yilgan. Ilmiy natijalarni ichki va tashqi bozorga olib chiqish bilan shug'ullanuvchi Respublika ilmiy ishlanmalari inovatsiya tijorat markazi Fanlar Akademiyasi tarkibida tashkil etilgan.

1997-yili Xorazm Ma'mun akademiyasi qayta tiklanib, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining mintaqaviy bo'linmasi sifatida tashkil etilgan. 2000-yili Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondi dunyoning eng boy qo'lyozmalar xazinasidan biri sifatida YuNESKO madaniy merosi ro'yhatiga kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2006-yil avgustdagi "Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi huzurida Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi tashkil etilgan. Bu qo'mitaga fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish, akademik va oliy ta'lim muassasalari fani integratsiyalashuviga, ilmiy sohadagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish vazifasi yuklatilgan. Hozirgi kunda bu qo'mita Vazirlik sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

O'zbekistonda ilm-fanga oid qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, 2016-2017-yillar tub islohotlar davri bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 30-dekabr kuni ilk bor mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashgan. Uchrashuv natijalariga ko'ra, O'zbekistonda ilm-fanga e'tibor yanada kuchaygan. Harakatlar Strategiyasida belgilanganidek, fan, ilmiy tadqiqot, innovatsiya yutuqlarini rag'batlantirish va ularni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish hamda ixtisoslashgan laboratoriya, yuqori texnologiya markazlari va texnologiyalarni joriy etish masalalari alohida ta'kidlangan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-fevraldagi "Fanlar Akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida 9 ta ilmiy tadqiqot muassasalari Fanlar Akademiyasi tarkibiga qaytarilgan va qator ilmiy tashkilotlar qayta tashkil etilgan. Fanlar Akademiyasining fan yo'nalishlari bo'yicha 3 ta ilmiy markaz va Navoiy bo'limi tashkil etilgan. O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyati qayta yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilda imzolagan "Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etilgan. Bu vazirlikning o'ziga xos vazifalari belgilab berilgan.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-fevradada qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi faoliyatini takomillashtirish va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni O'zbekistonda fan tarqqiyotini hozirgi zamon sivilizatsiyasi talablari asosida tashkil etish, xususan, mamlakatda joriy etilayotgan jadal tarqqiyotlar strategiyasining ilmiy asoslarini yaratish va ishlab chiqarishni fan asosida rivojlantirish zarurligini ko'rsatib bergan. Shu bilan birga, Fanlar Akademiyasi faoliyatini takomillashtirish, fan arboblari har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yuqori malakali, iste'dodli kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va uni rag'batlantirish zarurligini uqtirgan.

Ilm-fan sohasida samarali faoliyat yuritgan va o'z o'rniga ega bo'lgan bir nechta akademiklarimiz biz uchun o'rnakdir. Xususan, tarix sohasida faoliyat yuritgan faxrli akademiklarimiz Ahmadali Asqarov, Anatoliy Sagdullayev, Edvard Rtveladze va Dilorom Yusupovalarning ilmiy faoliatlari ilm-fan sohasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda ilm-fan rivojlanishiga oid juda ko'p islohotlar amalga oshirilgan va hozirgi vaqtda ham shunday islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar natijasida ilm-fan yuqori ko'rsatkichlarga erishilmoqda. Amalga oshirilayotga barcha islohotlar yurtimiz ravnaqiga o'zining munosib hissasini qo'shmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. L.V.Peregudev, M.X.Saidov, D.E.Aliqulov “ Ilmiy ijod metodologiyasi”. Toshkent-2002.
2. R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Raxmonqulov. ‘Pedagogika nazariyasi va tarixi’. Toshkent -2010.
3. N.Jo'rayev, A.Zamonov.”O'zbekiston tarixi” (Mustaqillik davri). Toshkent-2018.